



**XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA
VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI
BO'YICHA MA'LUMOT**

*2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-may oylarida 2 525 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 213 ta, oilaviy korxonalar – 799 ta, xususiy korxonalar – 420 ta, muassasalar – 24 ta va boshqalar – 69 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 3 377 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 272 taga yoki 60,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 086 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 070 taga yoki 53,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 791 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga yoki 1,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 9 481 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 792 taga yoki 23,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 784 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 517 taga yoki 20,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 213 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga yoki 0,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	34	47	51	97	150
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	2	1	10	20
Sanoat	23	29	35	52	60
Qurilish	3	5	2	6	21
Savdo	3	6	9	17	29
Tashish va saqlash	0	1	1	5	2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	3	3	3	7
Axborot va aloqa	0	0	0	1	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	0	1	4
Boshqa turlar	0	1	0	2	6

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	5 356	5 728	6 002	7 267	8 784
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	596	632	677	826	1 354
Sanoat	845	1 038	1 077	1 305	1 412
Qurilish	880	915	947	1 051	1 266
Savdo	1 590	1 748	1 859	2 342	2 679
Tashish va saqlash	379	408	453	502	567
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	163	193	177	218	237
Axborot va aloqa	75	89	76	84	100
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	62	71	89	114	154
Boshqa turlar	766	634	647	825	1 015

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	743	976	2 016	3 086
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	96	100	273	426
Sanoat	210	269	552	807
Qurilish	14	18	19	30
Savdo	148	210	494	870
Tashish va saqlash	3	3	11	17
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	164	255	501	662
Axborot va aloqa	12	11	19	23
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	7	10	13	37
Boshqa turlar	89	100	134	214


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni**
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining asosiy qismi Urganch shahri (4 616 ta), Urganch tumani (2 171 ta), Xiva shahri (1 755 ta), Xonqa tumani (1 622 ta) va Qo'shko'pir tumani (1 366 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Xorazm viloyati	150	93	57
Urganch sh.	45	30	15
Xiva sh.	15	10	5
tumanlar:			
Bog'ot	8	7	1
Gurlan	5	4	1
Qo'shko'pir	5	3	2
Urganch	20	6	14
Hazorasp	3	1	2
Tuproqqal'a	5	2	3
Xonqa	8	5	3
Xiva	11	5	6
Shovot	11	9	2
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	8	7	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahrida 45 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,0 %), Urganch tumani 20 ta (13,3 %), Xiva shahri 15 tani (10,0 %), Xiva tumani 11 ta (7,3 %), Shovot tumani 11 ta (7,3 %), Bog'ot tumani 8 ta (5,3 %) hamda Yangibozor tumani 8 tani (5,3 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Urganch shahri (23,1 %), Urganch tumani (10,7 %), Xiva shahri (8,7 %), Xiva tumani (8,2 %), Xonqa tumani (7,7 %), Qo'shko'pir tumani (6,7 %), Gurlan tumani (6,5 %), Yangiariq tumani (5,8 %), Bog'ot tumani (5,5 %), Hazorasp tumani (5,2 %), Shovot tumani (5,1 %), Yangibozor tumani (4,7 %) va Tuproqqal'a tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-may oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Urganch shahrida (14,6 %), Qo'shko'pir tumani (10,1 %), Gurlan tumani (9,8 %), Yangibozor tumani (8,8 %), Urganch tumani (8,6 %), Xonqa tumani (8,2 %), Bog'ot tumani (7,7 %), Xiva shahri (7,1 %), Xiva tumani (6,6 %), Yangiariq tumani (6,0 %), Shovot tumani (5,3 %), Hazorasp tumani (4,1 %) va Tuproqqal'a tumani (3,1 %) ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Urganch shahrida (22,4 %), Urganch tumani (9,9 %), Xiva shahri (9,6 %), Xiva tumani (9,0 %), Hazorasp tumani (7,8 %), Yangiariq tumani (7,4 %), Gurlan tumani (6,9 %), Xonqa tumani (6,2 %), Qo'shko'pir tumani (5,6 %), Bog'ot tumani (5,4 %), Shovot tumani (4,1 %), Tuproqqal'a tumani (3,2 %) va Yangibozor tumani (2,5 %) hissasiga tegishli.

Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqt-i-vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-sон qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi). The main navigation menu includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MEROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The 'INTERAKTIV XIZMATLAR' section is currently selected. A sub-menu for 'Statistik klassifikatsiyalar' is open, listing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Usulby materiallar', 'Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. Below this is a form titled 'Rasmdagil kodni kiritning' (Enter the registration number) with a placeholder 'Kodni yangilash uchun rasmga boing' and a 'Qidiruv' (Search) button. To the right, a sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' such as 'Aholini ro'yxtarga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relejzlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar – statistika haqida', 'Usulby materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:62 224-65-11**